
Kasb-hunarga o'qitish markazini muvaffaqiyatli tamomlagan ayollarga sertifikat topshirildi

Qo'shtepa tumanidagi "Soy bo'yi" mahalla fuqarolar yig'ini binosida xotin- qizlarni hunarmandchilik, tadbirkorlik yo'nalishlari bo'yicha kasb-hunarga o'qitish markazini muvaffaqiyatli tamomlagan ayollarga sertifikat topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Yuldasheva ishtirok etdi.

Tumanning turli mahallalaridan ishtirok etgan xotin-qizlar o'quv markazida 60 soatlik dastur asosida do'ppichilik sir-asrorlarini o'rganib, mustaqil ish yuritish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadbir davomida o'quv kursi bitiruvchilari tomonidan tayyorlangan do'ppilar ko'rgazmasi ham namoyish etildi.









2024-10-16 13:15:45